

**"UZBEKISTAN AIRWAYS" AJ NING ICHKI YO'NALISHLARIDA UMUMIY/ODDIY YUKLARNI TASHISH BO'YICHA
TARIFLAR. YEVRODA (EUR) KO'RSATILGAN**

№	Yo'nalish	IATA aeroport kodi	Minimal	Normal	45 kg +	100 kg +	300 kg +	500 kg +	1000 kg +
1	Buxoro-Toshkent	BHK-TAS	-	0,60	0,50	0,45	0,40	0,35	0,30
2	Namangan-Toshkent	NMA-TAS	-	0,50	0,40	0,35	0,30	0,25	0,20
3	Nukus-Toshkent	NCU-TAS	-	0,70	0,60	0,55	0,50	0,45	0,40
4	Samarqand-Toshkent	SKD-TAS	-	0,50	0,40	0,35	0,30	0,25	0,20
5	Termiz-Toshkent	TMJ-TAS	-	0,70	0,60	0,55	0,50	0,45	0,40
6	Urganch-Toshkent	UGC-TAS	-	0,70	0,60	0,55	0,50	0,45	0,40
7	Farg'ona-Toshkent	FEG-TAS	-	0,50	0,40	0,35	0,30	0,25	0,20
8	Andijon-Toshkent	AZN-TAS	-	0,50	0,40	0,35	0,30	0,25	0,20
9	Toshkent-Buxoro	TAS-BHK	-	0,60	0,50	0,45	0,40	0,35	0,30
10	Toshkent-Namangan	TAS-NMA	-	0,50	0,40	0,35	0,30	0,25	0,20
11	Toshkent-Nukus	TAS-NCU	-	0,70	0,60	0,55	0,50	0,45	0,40
12	Toshkent-Samarqand	TAS-SKD	-	0,50	0,40	0,35	0,30	0,25	0,20
13	Toshkent-Termiz	TAS-TMJ	-	0,70	0,60	0,55	0,50	0,45	0,40
14	Toshkent-Urganch	TAS-UGC	-	0,70	0,60	0,55	0,50	0,45	0,40
15	Toshkent-Farg'ona	TAS-FEG	-	0,50	0,40	0,35	0,30	0,25	0,20
16	Toshkent-Andijon	TAS-AZN	-	0,50	0,40	0,35	0,30	0,25	0,20
17	Urganch-Buxoro	UGC-BHK	-	0,50	0,40	0,35	0,30	0,25	0,20

**7-sonli Ilovaga izohlar 29.03.2026-y.dagi.
(Respublika ichidagi yo'nalishlarga sotishga)**

a) E'lon qilingan tariflarga qo'shimcha ravishda quyidagi yig'imlar undiriladi, ular Cargospot – Master data – Other/Local Charges bo'limida ko'rsatilgan:

- **9,00 Yevro (AWC)** – 1 dona avia yuk xatini rasmiylashtirish uchun.

E'lon qilingan tariflar muntazam yo'lovchi qatnovlarida tashilgan yuklarga nisbatan qo'llaniladi.

b) Harorat rejimi talab qilinadigan **2-sonli ilovada ko'rsatilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari** (COL, ERT, FRO, CRT kodlari) uchun ko'paytiruvchi koeffitsient qo'llanilmaydi, biroq jo'natish va yetib borish aeroportlarining terminal yig'imlari va to'lovlari yuk jo'natuvchi va yuk qabul qiluvchi tomonidan belgilangan tartibda to'lanadi.

Harorat rejimiga ega yuklar:

1. **Salqin harorat talab etiladigan yuklar (COL):** +2°C dan +8°C gacha bo'lgan diapazonda saqlanishi lozim.

2. **Kengaytirilgan xona harorati (ERT):** +2°C dan +25°C gacha bo'lgan diapazonda saqlanishi lozim.

3. **Muzlatilgan (FRO) yuklar:** yerda ishlov berish vaqtida -18°C yoki undan past haroratda saqlanishi lozim. Havo transportida manfiy haroratni ta'minlashning imkoni bo'lmaganligi sababli, yuk jo'natuvchi tomonidan yuklarni qadoqlashda qo'shimcha chora-tadbirlar qo'llanilishi lozim.

4. **Nazorat ostidagi xona harorati (CRT):** +15°C dan +25°C gacha bo'lgan diapazonda saqlanishi lozim.

c) **tirik hayvonlar uchun** e'lon qilingan **NORM** tarifi va **1,2 ko'paytiruvchi koeffitsient** qo'llaniladi va shu bilan birga, jo'natish va yetib borish aeroportlarining barcha yig'imlari yuk jo'natuvchi va yuk qabul qiluvchi tomonidan belgilangan tartibda to'lanadi.

d) **xavfli yuklar uchun** xavf sinfiga qarab butun tarif tarmog'i bo'yicha MIN dan +1000 kg gacha quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi:

-1-sinf uchun — **1,5;**

-2, 3, 4-sinflar uchun — **1,3;**

-5, 6, 7, 8-sinflar uchun — **1,25;**

-9-sinf uchun — **1,1.**

e) **boshqa maxsus yuklar uchun** sotuvlar tarif jadvaliga muvofiq, hech qanday ko'paytiruvchi koeffitsienti qo'llanilmagan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, jo'natish va yetib borish aeroportlarining terminal to'lovlari va yig'imlari yuk jo'natuvchi va yuk qabul qiluvchi tomonidan belgilangan tartibda to'lanadi.